



## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-aprel)



Das`tlabki maʼlumotlar boʼyicha 2021-yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent shahar korxonalari tomonidan 22,1 trln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʼlib, 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 112,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʼgʼri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (69,7%) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʼyicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili boʼlib, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 14,1 %, suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʼish va utilizatsiya qilishda 2,7 % ga ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, togʼ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 9,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatning 12,0 % ga oʼsishi kuzatildi.

**\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʼzgarishini tavsiylovchi nisbiy koʼrsatkichdir.**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,7 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 21,3 % ni tashkil etdi.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



O‘tgan yilning shu davriga nisbatan shag‘al qazib olish 10,0 martaga, chaqiq tosh qazib olish 3,9 martaga, neft qazib olish 13,2 %, oshgan bo‘lsa, tabiiy gaz 31,1 % ga, gazli kondensat 5,7 %, ga pasaygan.



Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar - aprel	2021-yil yanvar - aprel	Farqi +/-
Neft, ming t.	194,5	220,3	25,8
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	204 302,0	140 726,1	-63 575,9
Gaz kondensati, ming t.	264,0	249,0	-15,0
Chaqiq tosh, ming t.	32,8	128,7	96,0
Shag'al , ming t.	1,2	12,1	10,9




2021-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,4 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 69,7 % ni tashkil etdi.





### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 9,2 % ni (2020-yilning yanvar –aprel oylarida 4,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali 11,9 % (14,1 %), o'rta-quyi texnologiyali 22,1 % (20,4 %) va quyi texnologiyali 26,5 % (27,6 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 22,6 % (2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,5 % (2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 161,0 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 7,3 % (2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 14,3 % (2020- yilning yanvar – aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 5,4 % (2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati



2021-yilning yanvar-aprel oylariga ishlab chiqaradigan sanoatda 94,2 mln. dona butilka (2020-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 6,6 % ga o'sgan), 2 704,2 ming litr uzum vinosi (0,8 %) kamaygan, 709,6 mln. dona tamaki mahsuloti (74,3 %), 8 078,2 ming litr aroq 100 % spirit (35,7 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.





### Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-aprel	2021-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oltin gugurt, tonna	93 347,0	85 626,0	-7 721,0
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishilar, tonna	990,9	747,4	-243,5
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, tonna	5 812,6	4 021,5	-1 791,1
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	19,8	8,6	-11,3
Sovutgich va muzlatgichlar, dona.	97 058,0	166 240,0	69 182,0



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,6 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,3 % ni) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 14,1 % ga kamayganligi kuzatildi.





## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020-yil Yanvar-aprel	2021-yil Yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	131,8	131,9	0,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6437,4	6483,7	46,3
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, ming so 'm.	450844,0	282088,0	-168756,0



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ni) tashkil etdi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-aprel	2021-yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	20,3	20,1	-0,2
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	111,3	124,9	13,6
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	43,7	40,8	-3,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 15,1 % ga oshdi. tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 6,9 % ga oshdi, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,3 % ga oshdi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,3 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,5 % ga ko'paygan , uning jami sanoatdagi ulushi 37,5 % ni tashkil etdi.



2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021- yilning yanvar-aprel oyida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 52,5 % dan 64,7 % gacha ko'payganligi qayd etildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 5,5 % (2020- yil yanvar-aprel oylarida 5,6 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 26,3 % ni shuningdek, Olmazor tumani 10,6 % ni, Uchtepa tumani 9,9 % ni, Sirg`ali 9,3 % ni, Bektemir tumani 8,4 % ni hamda Mirobod tumani 7,9% ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,8 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (185,6 %), Mirobod (133,9 %), Sirg'ali (117,3 %) hamda Olmazor tumanlarida (116,5 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021-yilning yanvar - aprel oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>8 282,0</b>	<b>100,0</b>	<b>120,8</b>
<b>Uchtemir</b>	<b>820,0</b>	<b>9,9</b>	<b>114,1</b>
<b>Bektemir</b>	<b>698,1</b>	<b>8,4</b>	<b>114,2</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>319,5</b>	<b>3,9</b>	<b>82,4</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>436,2</b>	<b>5,3</b>	<b>103,1</b>
<b>Mirobod</b>	<b>655,6</b>	<b>7,9</b>	<b>133,9</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>223,5</b>	<b>2,7</b>	<b>85,5</b>
<b>Olmaozor</b>	<b>877,6</b>	<b>10,6</b>	<b>116,5</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>768,3</b>	<b>9,3</b>	<b>117,3</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>427,8</b>	<b>5,2</b>	<b>107,2</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>2 174,4</b>	<b>26,2</b>	<b>185,6</b>
<b>Yangihayot</b>	<b>232,4</b>	<b>2,8</b>	<b>103,2</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>648,6</b>	<b>7,8</b>	<b>85,2</b>

Hududlar kesimida iste`mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 26,3%, shuningdek, Olmazor tumani 10,6 % ni, Uchtemir tumani 9,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yashnobod (185,6 %), Mirobod (133,9 %), Sirg`ali (117,3 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021- yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>2 464,2</b>	<b>100,0</b>	<b>103,8</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>142,4</b>	<b>5,8</b>	<b>79,0</b>
<b>Bektemir</b>	<b>584,1</b>	<b>23,7</b>	<b>124,6</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>166,6</b>	<b>6,8</b>	<b>96,8</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>93,3</b>	<b>3,8</b>	<b>76,7</b>
<b>Mirobod</b>	<b>78,4</b>	<b>3,2</b>	<b>85,9</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>65,0</b>	<b>2,6</b>	<b>71,6</b>
<b>Olmazor</b>	<b>368,3</b>	<b>14,9</b>	<b>114,5</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>342,3</b>	<b>13,9</b>	<b>112,7</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>125,8</b>	<b>5,1</b>	<b>140,7</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>124,6</b>	<b>5,1</b>	<b>87,7</b>
<b>Yangihayot</b>	<b>100,1</b>	<b>4,1</b>	<b>107,5</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>273,3</b>	<b>11,1</b>	<b>91,4</b>

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir tumaniga to'g'ri kelib 23,7 % ni, shuningdek, Olmazor 14,9 % ni, Sirg'ali 13,9 % ni, Chilonzor 11,1 % ni, Yunusobod 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yakkasaroy (140,7%), Bektemir (124,6 %), Olmazor (114,5%), Sirg'ali (112,7 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021-yilning yanvar-aprel oylarida)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Toshkent shahar</b>	<b>5 359,1</b>	<b>100,0</b>	<b>130,8</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>677,6</b>	<b>12,7</b>	<b>126,1</b>
<b>Bektemir</b>	<b>113,3</b>	<b>2,1</b>	<b>80,6</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>128,2</b>	<b>2,4</b>	<b>65,3</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>342,8</b>	<b>6,4</b>	<b>113,9</b>
<b>Mirobod</b>	<b>577,2</b>	<b>10,8</b>	<b>144,9</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>125,6</b>	<b>2,3</b>	<b>88,9</b>
<b>Olmazor</b>	<b>509,4</b>	<b>9,5</b>	<b>118,2</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>384,1</b>	<b>7,2</b>	<b>122,5</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>301,9</b>	<b>5,6</b>	<b>97,6</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>1695,3</b>	<b>31,6</b>	<b>236,4</b>
<b>Yangihayot</b>	<b>132,2</b>	<b>2,5</b>	<b>87,2</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>371,1</b>	<b>6,9</b>	<b>80,5</b>

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib 31,6 % ni, shuningdek, Uchtepa 12,7 % ni, Mirobod 10,8 % ni, Olmazor 9,5 % ni, Sirg`ali 7,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod (236,4%), Mirobod (144,9 %), Uchtepa (126,1 %), Olmazor (118,2 %) tumanlarida qayd etildi.




**Toshkent shahri hududlari kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	<b>2021- yil yanvar-aprel mldr. so'm</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>22 085,0</b>	<b>112,7</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>1 568</b>	<b>93,9</b>
<b>Bektemir</b>	<b>1 295</b>	<b>101,8</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>1 120</b>	<b>77,8</b>
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	<b>1 428</b>	<b>95,8</b>
<b>Mirobod</b>	<b>1 891</b>	<b>101,2</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>1 400</b>	<b>113,1</b>
<b>Olmazor</b>	<b>1 479</b>	<b>110,4</b>
<b>Sirg'ali</b>	<b>1 712</b>	<b>112,6</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>1 369</b>	<b>102,0</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>7 035</b>	<b>114,6</b>
<b>Yangihayot</b>	<b>311</b>	<b>103,2</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>1 478</b>	<b>109,7</b>



**Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining kamayishiga, Yunusobod (2021-yil yanvar-aprel oyiga nisbatan 77,8 %), Uchtepa (93,9 %), Mirzo Ulug`bek (95,8%) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligi bilan izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,8%) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (185,6%), Mirobod (133,9%), Sirg'ali (117,3 %) hamda Olmazor tumanlarida (116,5 %) qayd etildi.



## Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnabod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 31,9 %), Mirobod (8,7 %), Sirg`ali (7,8 %), Uchtepa (7,1 %) hamda Olmozor (6,7 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangihayot (1,4 %) hamda Yunusobod (5,1 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2021-yil yanvar-aprel oyida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6,8 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 31,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangihayot tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 74,8%), Olmazor tumanida (66,4%), Yunusobod tumanida (57,7 %), Chilonzor (56,7 %), Sirg`ali (52,3 %) Yakkasaroy (32,7 %), tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (15,7 %), Mirobod (17,5 %) va Shayxontohur (18,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



**Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari  
(2021- yil 1- may holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,2 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,2 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiyligi sonining 13,5 %) Olmazor tumaniga, 2,0 mingtasi (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,7 %) Uchtepa tumaniga, 1,8 mingtasi (10,8 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (8,9 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,3 %) Mirzo Ulug`bek tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021-yilning yanvar-aprel oylarida shaharda 837 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 100 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 11,9 %) Chilonzor tumanida, 100 tasi (11,9 %) Olmazor tumanida, 87 tasi (10,4 %) Uchtepa tumanida, 81 tasi (9,7 %) Yunusobod tumanida, 79 tasi (9,4 %) Shayxontohur tumanida, hamda 76 tasi (9,1 %) Yashnobod tumanida tashkil etildi.




## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari (2021-yil 1 - may holatiga ko'ra)

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 173 ta), Chilonzor (1 993 ta), Uchtepa (1 896 ta), Yunusobod (1 748 ta) hamda Shayxontohur (1 429 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shaharda eng ko'p sanoat korxonalari  
bo'lgan tumanlar (1 may 2021 yil holatiga )



Toshkent shaharda eng kam sanoat  
korxonalari bo'lgan tumanlar (1 may  
2021 yil holatiga)



2021-yilning 1-may holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (517 ta), Yangihayot (544 ta), Mirobod (942 ta), Sirg`ali (1 011 ta), Yakkasaroy (1 241 ta), Yashnobod (1 305 ta) tumanlarida qayd etildi.

Sanoat statistikasi

bo'limi Tel.: (71) 203-88-16